

## FUQAROLIK HUQUQIDA SHARTNOMALAR TUSHUNCHASI, ULARNI TUZISH VA JAVOGBARLIK MASALALARINING ILMIY AMALIY-TAHLILI

**Atamuratova Nasiba Qurbanbay qizi**

*Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Fuqarolik huquqi sohasida shartnomalar instituti, ularni tushinish, shartnomalar tuzish va uning amal qilinishida qo'llaniladigan qoidalar, shartnomalarning haqiqiy sanalmasligi shartlari va oqibatlari, ulardan kelib chiqadigan javobgarlik holatlari har bir davlatda har xil xususiyatga ega hisoblanadi. Ushbu maqolada shartnomalarning mazmun-mohiyatini tushinish, ularni tuzishda amal qilinadigan prinsiplar, javobgarlik masalalari O'zbekiston Respublikasi va boshqa xorijiy davlatlar jumladan, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Niderlandiya davlatlari qonunchiligi misolida muhokama qilindi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xorijiy tajribani uyg'unlashtirish bilan bog'liq muammolardan kelib chiqib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.*

**Kalit so'zlar:** *shartnoma, erk-iroda, prinsiplar, vijdonlilik prinsipi, javobgarlik, haqiqiy sanalmasligi, firibgarlik, uchinchi shaxslar manfaatlari.*

### **Kirish**

Shartnomalar fuqarolik huquqida juda katta ahamiyatga ega institutlardan biri hisoblanadi. Shartnomalar ikki tarafning erk-irodasini ifodalovchi, ikkala taraf o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishda eng qulay vositasi hisoblanadi. Ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquq va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi.[1] Shartnomalarni mazmunini tushinish, ularni tuzishda turli xil qoidalar belgilanishi mumkin. Jumladan, O'zbekiston qonunchiligida shartnomalar ikkala tarafning erk-irodasi bilan, ularning xohishiga ko'ra belgilangan shartlar asosida tuziladi. Bunda albatta belgilangan shaklga amal qilish katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu holat boshqa davlatlar qonunchiligida ham birxilmi? Shartnomalar tuzishda alohoda qoidalar belgilangan holatlar ham mavjudmi?

### **Material va metodlar**

Mazkur maqolani tayyorlashda tizimli-tuzilmaviy, induksiya, deduksiya, mantiqiy, qiyosiy-tahliliy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish kabi usullardan foydalanilgan.

Ushbu maqoladagi tadqiqot obyekti O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligida shartnomalar tuzishdagi kamchiliklar, ushbu jarayonni tartibga solishda boshqa xorijiy davlatlar, jumladan Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va Niderlandiya kabi davlatlardagi foydalanib kelinayotgan tajriba hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot ishi natijasida shartnoma tuzishda foydalaniladigan fundamental prinsiplar (tamoyillar) va javobgarlik masalasidagi o'zaro farqlar tahlil qilingan.

### ***Tadqiqot natijalari***

Shartnomalar yuqorida qayd etib o'tganimizdek shartnomani tuzayotgan ikkala tarafning erk-irodasini ifodalovchi kelishuv hisoblanadi. Shartnoma tushunchasidagi asosiy belgi va shart - taraflarning muayyan natijaga erishishga qaratilgan o'zaro kelishuvidir.[2] Bunda taraflar qanday huquq va majburiyatlarga ega bo'lmasin, oxir-oqibat ular bitta natijaga erishadilar, jumladan aytadigan bo'lsak, qandaydir narsaga mulk huquqini qo'lga kiritishi mumkin. Shartnoma tuzishda tabiiy holatki ikkala taraf ham o'zining manfaatlarini ko'zlab, o'zining istaklarini o'tkazishga urinadilar. Agar tamonlardan bittasida shartnoma shartlarini bajarishda ikkinchi tarafga nisbatan shubha paydo bo'ladigan bo'lsa, albatta undan qo'shimcha kafillik, kafolat so'rashi mumkin. Umuman aytganda, shartnoma tuzish ancha harajat talab qiladi. Wittmannning fikri bilan aytadigan bo'lsak, "shartnoma tuzish tomonlarning shartnomalar tuzish xarajatlarini, shartnomalardan kelib chiqadigan nizolarni hal qilishda sudlarning xarajatlarini, noto'g'ri yozilgan yoki to'liq bo'lmagan shartnomalardan kelib chiqadigan samarasiz xatti-harakatlarning narxini minimallashtirishdan iborat." [3]

Bir qator xorijiy davlatlarda shartnoma tuzishda ishlatiladigan tamoyillar qonunchilik darajasida ishlab chiqilgan bo'lib, tamonlar ushbu prinsiplardan kelib chiqib shartnomalar tuzadilar. Jumladan, Fransiya fuqarolik kodeksida keltirilishida, shartnoma tuzayotganda tamonlar hamisha vijdonlilik prinsipidan kelib chiqib, o'z shartnomalarini tuzadilar. Ushbu prinsipga amal qilish har bir tamon uchun majburiydir. Tamonlar ushbu prinsipni o'zining kelishuvi bilan o'zgartirishi mumkin emas. Ushbu prinsip shartnoma tuzishning hamma bosqichida, uning tuzilishi boshlanishidan tortib belgilangan majburiyat bajarilishigacha amal qiladi.[4] Ushbu prinsip Germaniya davlatida ham hamma shartnoma turiga nisbatan ishlatiladi.[5] Lekin boshqa davlatlarda, jumladan Buyuk Britaniyada ushbu prinsip hamma shartnomalarga nisbatan ham qo'llanila bermaydi. Faqatgina uzoq muddatga tuziladigan shartnomalarga nisbatan qo'llaniladi. Masalan, fransheyzing shartnomasiga va uzoq muddatga tuzilgan yetkazib berish shartnomalariga nisbatan qo'llaniladi. Boshqa qisqa muddatga tuziladigan shartnomalarda esa ushbu prinsip qo'llanilamaydi, ushbu shartnomalar o'zaro ishonchga asoslangan holatda tuziladi.[6] O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida esa ushbu prinsip shartnomalarda yozma ravishda yozib qo'yilib, tamonlarning majburiyati sifatida aniq belgilab qo'yilmagan. Bunga asosiy sabab xalqimizning o'z mintalitetidan, odat normalaridan kelib chiqib tuzilishidir. Lekin bizda ushbu prinsip umuman qo'llanilmaydi degan fikrga kelish noto'g'ri. Ayrim shartnoma turlarida, ushbu prinsip qo'llaniladi. Masalan, omonat shartnomasi, pudrat shartnomasi kabi shartnoma turlarida qo'llaniladi.[7]

Biz ushbu prinsipni qo'llashimiz uchun ushbu tushunchaning mazmun mohiyatini aniq tushunib olishimiz kerak. Xo'sh vijdonlilik o'zi nima? Ushbu tushunchaga adabiyotlarda turli xil ta'riflar keltirilgan. Buni boshqa davlatlar qonunchiligi misolida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, Germaniya qonunchiligida vijdonan harakat qilish jamiyatning ziyoli qatlami tamonidan jamiyat uchun axloqiy jihatdan maqbul bo'ladigan va shartnoma tuzuvchi ikkinchi tarafning manfaatlarini hisobga olgan holatda harakat qilish hisoblanadi. [8] Fransiya qonunchiligida esa ushbu tushunchaga aniq ta'rif berilmagan. Niderlandiya qonunchiligida esa ushbu tushuncha quyidagicha ta'riflangan: "Agar shaxs ma'lum bir sharoitta qonunlarni bilgan, yoki bilishi kerak bo'lgan, ammo ushbu qonun-qoidalar asosida harakat qilmagan bo'lsa u vijdonan harakat qilmagan hisoblanadi".[9]

### ***Tadqiqot natijalari tahlili***

Shunigdek, ushbu vijdonan harakat qilishdan kelib chiqqan holatda shartnomalarni buzishda qoplanadigan zarar, shartnomaning haqiqiy sanalmasligi masalalari bir-biriga bog'langan. Masalan, Buyuk Britaniya qonunchiligi bo'yicha shartnoma tuzayotganda, ikkala tarafdin bittasi shartnomani firibgarlik bilan, firibgarlikni maqsad qilgan holatda tuzgan bo'lsa, uning tijorat sirlarini oshkor qiladigan bo'lsa yoki shu maqsadda tuzgan bo'lsa, yokida ikkinchi tarafni ataylab qiyin ahvolda qoldirish uchun tuziladigan bo'lsa va korrupsiya haqidagi qonunchilikni buzadigan, uchinchi shaxslarning manfaatlariga ziyon yetkazadigan bo'lsa ushbu tuzilgan shartnoma haqiqiy sanalmaydi va javobgarlikni keltirib chiqaradi. Germaniya qonunchiligida ushbu masala shartnoma turlariga qarab belgilanadi. Jamiyatda keng tarqalgan, ko'p qo'llaniladigan shartnomalar uchun quyidagi holatlar belgilab berilgan:

- Firibgarlikni ko'zlagan bo'lsa;
- Germaniya qonunchiligini qo'pol tarzda buzgan shartnomalar tuzadigan bo'lsa, yoki ushbu qonunlarga befarqalik bilan qaralgan holatda shartnomalar tuzadigan bo'lsa;
- Qonunchilikni buzish natijasida, yoki uni "chetlab o'tish" natijasida tuzilgan shartnomalar natijasida shartnoma tuzgan tarafga ko'p miqdorda zarar yetkazilgan bo'lsa, yokida uchinchi shaxslarning manfaatlariga ziyon yetkazgan bo'lsa. Ushbu holatda qo'rqitish natijasida tuzilgan bitim nazarda tutulmoqda. [10]

Niderlandiya qonunchiligida esa ushbu holat yuqoridagi kabi tartibga solingan. Bitta farqli jihati shundaki, bunda ushbu shartnomalarni tuzishda jamoat manfaatlarini, axloq qoidalarini buzib shartnoma tuzishga yo'l qo'yilmaydi deyilgan.[11]

### ***Xulosalar***

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidan farqli ravishda xorijiy davlatlar jumladan, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Niderlandiya kabi davlatlarda shartnomalarni tuzish bosqichlari va javobgarlik masalalari mukammal tartibga



solingan. Shartnoma tuzishda aniq prinsiplar belgilab berilgan. Javobgarlik maslasini belgilashda ham aniq qonun-qoidalarga asoslangan bo'lib, ushbu masalada prinsiplarning ham ahamiyati katta. O'zbekiston qonunchiligida ushbu masalalar aniq taribga solinmagan. Shartnomam tuzishda amal qilinishi kerak bo'lgan holatlar to'liq belgilab berilmagan. Bu esa shartnomalarda qonunchilikda ko'rsatib o'yilmagan javobgarlik holatlarini, ziyonni keltirib chiqarishi mumkin.

#### REFERENCES:

1. 1995-yil 21-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.11.2022., 03/22/801/0998-son
2. Qarang: Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism/Mualliflar jamoasi – T.: TDYU nashriyoti, 2016
3. Qarang: Wittman, Donald A. Economic Foundations of Law and organization // Cambridge University Press, 2006
4. <https://www.fd.ulisboa.pt/wp-content/uploads/2014/12/Codigo-Civil-Frances-French-Civil-Code-english-version.pdf>
5. <https://library.oapen.org/viewer/web/viewer.html?file=/bitstream/handle/20.500.12657/31998/620434.pdf?sequence=1&isAllowed=y>
6. <https://www.law.berkeley.edu/wp-content/uploads/2017/11/CommonLawCivilLawTraditions.pdf>
7. 1995-yil 21-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.11.2022-y.,03/22/801/0998-son
8. <https://library.oapen.org/viewer/web/viewer.html?file=/bitstream/handle/20.500.12657/31998/620434.pdf?sequence=1&isAllowed=y>
9. [https://www.ilo.org/dyn/natlex/natlex4.detail?p\\_lang=en&p\\_isn=91671](https://www.ilo.org/dyn/natlex/natlex4.detail?p_lang=en&p_isn=91671)
10. <https://www.fd.ulisboa.pt/wp-content/uploads/2014/12/Codigo-Civil-Alemao-BGB-German-Civil-Code-BGB-english-version.pdf>
11. [https://www.ilo.org/dyn/natlex/natlex4.detail?p\\_lang=en&p\\_isn=91671](https://www.ilo.org/dyn/natlex/natlex4.detail?p_lang=en&p_isn=91671)